

## O‘ZBEKISTONDA FAOLIYAT OLIB BORAYOTGAN OILAVIY KORXONALAR TAHLILI

**Mo‘ydinjon Abduraxmonovich Arziyev**  
**mustaqil tadqiqotchi**  
[arziyev1970@mail.ru](mailto:arziyev1970@mail.ru)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbekistonda oilaviy korxonalar faoliyatining ko‘rsatkichlari asosida tahlillar, ular natijasida nazariy-amaliy takliflar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** oilaviy korxonalar, korxonani boshqarish, oilaviy model, korxonani boshqarish tuzilmasi, oilaviy korxonalar faoliyati samaradorligi.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda oilaviy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, hududlarda oilalarni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilishga hamda shu asosda aholining bandligi ta‘minlanishiga qaratilgan qator choralar ko‘rilmogda. Shu bilan birga, mahalliy oilaviy korxonalar tadbirkorlik faoliyati subyekti sifatida xususiy sektorni rivojlantirishi, jamiyatning ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish va ijtimoiy ehtiyojlarini ta‘minlash uchun o‘z salohiyatini to‘la-to‘kis hali ochib bergani yo‘q. Shunga ko‘ra, O‘zbekiston – 2030 Strategiyasida oilaviy tadbirkorlik asosida bandlikni ta‘minlashda oddiy “qo‘l mehnati”dan – sanoatlashgan ishlab chiqarish bosqichiga o‘tish bo‘yicha maqsad belgilangan. Ushbu maqsadga samarali erishish bu borada muhim izlanishlarni olib borish, oilaviy korxonalar faoliyatini boshqarish samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo etadi hamda mazkur sohaning respublikamiz olimlari tomonidan alohida ilmiy tadqiqot obyekti sifatida deyarli o‘rganilmaganligi tanlangan tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilab beradi .

Mamlakatimiz milliy iqtisodiyotida oilaviy korxonalar singari tadbirkorlik subyektlari o‘ziga xos o‘rin egallab, ular makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarda ham yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Shunday bo‘lsada respublikamizda oilaviy korxonalar tahlil qilinganda son jihatidan birmuncha kamayganligini quydagi jadvalda ko‘rish mumkin.

**1-jadval**
**O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalarining umumiy soni, viloyatlar bo‘yicha taqsimoti (2023.01.01-2024.01.01-yil holatiga ko‘ra)<sup>1</sup>**

№	Viloyatlar kesimida va respublika bo‘yicha	2023.01.01-2024.01.01 yil holaiga		2023.01.01 -2024.01.01 yil holatiga ko‘ra farqi	
		2023 yil	2024 yil	-	+
1	Qoraqalpog‘iston Resp.	2172	2173		+1
	Viloyatlar :				
2	Andijon	2962	1483	-1479	
3	Buxoro	3450	3052	-398	
4	Jizzax	2140	1512	-628	
5	Qashqadaryo	5226	3614	-1612	
6	Navoiy	4157	3418	-739	
7	Namangan	1337	960	-377	
8	Samarqand	10499	7964	-2535	
9	Surxondaryo	5847	3742	-2105	
10	Sirdaryo	356	279	-77	
11	Toshkent	5073	3848	-1225	
12	Farg‘ona	6608	5009	-1599	
13	Xorazm	5488	4889	-599	

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi statistika boshqarmasi rasmiy sayti <https://stat.uz/uz/> ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

<b>14</b>	Toshkent sh,	3795	2992	-803	
	<b>Respublika bo'yicha</b>	<b>59110</b>	<b>44935</b>	<b>-14176</b>	<b>+1</b>

Ushbu jadvalga e'tibor beradigan bo'lsak, respublikamizda 2022 yil yakunida faoliyat ko'satayotgan oilaviy korxonalar soni 59110 tani tashkil qilgan bo'lsa 2023 yilning mos davriga nisbatan 44935 tani tashkil etib, -14176 taga kamayganligini ko'rishimiz mumkin. 2023 yil yakuni bo'yicha respublikamizda jami 44935 ta oilaviy korxonalar faoliyat ko'rsatgan. Bu korxonalarni hududlar kesimida tahlil etadigan bo'lsak, eng ko'p kamayish ko'rsatkichi Samarqand viloyatiga (-2535 ta) to'g'ri kelgan. Ikkinchisi Surxondaryo viloyati (-2105 ta) hissasiga va uchunchisi Farg'ona viloyati (-1599 ta) ga to'g'ri kelgan.

Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish borasida katta salohiyati bo'la turib, Andijon viloyatida 2022 yil yakunida faoliyat ko'satayotgan oilaviy korxonalar soni 2962 tani tashkil qilgan bo'lsa, 2023 yilning mos davriga nisbatan 1483 tani tashkil etib, -1479 taga kamayganligini, yani oilaviy korxonalar soni 50 % ga qisqarganligini ko'rishimiz mumkin. Sirdaryo viloyati 2022 yil yakunida faoliyat ko'satayotgan oilaviy korxonalar soni 356 tani tashkil qilgan bo'lsa 2023 yilning mos davriga nisbatan 279 tani tashkil etib, -77 taga (21,6 %) kamayganligini, ko'rishimiz mumkin. Namangan viloyatida esa 2022 yil yakunida faoliyat ko'satayotgan oilaviy korxonalar soni 1337 tani tashkil qilgan bo'lsa 2023 yilning mos davriga nisbatan 960 tani tashkil etib, -377 taga (28,2 %) kamayganligini, ko'rishimiz mumkin.

Faqatgina, Qoraqalpog'iston Respublikasida 2022 yil yakunida faoliyat ko'satayotgan oilaviy korxonalar soni 2172 tani tashkil qilgan bo'lsa 2023 yilning mos davriga nisbatan 2173 tani tashkil etib, +1 taga ko'payganligini ko'rishimiz mumkin.

Respublikamiz viloyatlarda oilaviy korxonalar soni statistik raqamlardagiga nisbatan ko'p bo'lishi mumkin. Ayrim oilaviy biznes subyektlari rasmiy bo'lmasda

tadbirkorlik faoliyat bilan shug'ullanayotgan bo'lishlari e'tibordan holi emas. Shuning uchun hokim yordamchilari instituti hamda mahallada tashkil etilgan soliq inspektori xodimiga o'ziga teshishli hududda norasmiy faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlar va norasmiy mehnat bilan shug'ullanayotganlarni rasmiy sektorga o'tkazish bo'yicha tushuntirishlar bergani maqsadga muvofiq bo'lar edi.

O'zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning yana muhim bir jihati tadbirkorlikni rivojlantirish, uni qo'llab-quvvatlash, biznes muhitni yaxshilash orqali hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash hisoblanadi. Albatta mazkur vazifani amalga oshirishda hududlarda oilaviy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish hozirgi kunning ustuvor vazifalardan biridir. Hududlarda oilaviy tadbirkorlikni rivojlanish tendensiyalarini doimiy o'rganish, tahlil qilish va baholash o'ziga xos ahamiyat kasb etadi

Fikrimizcha, hozirgi vaqtda dunyo mamlakatlarida kichik biznesning aksariyat qismi oilaviy korxonalar shaklida ish yuritmoqda. Iqtisodiy rivojlangan ko'plab mamlakatlarda oilaviy tadbirkorlik sohasidagi tadqiqotlarni olib boruvchi, uning manfaatlarini himoyalovchi va oilaviy korxonalarining faoliyat ko'rsatishi borasida tajriba almashish uchun munozara maydonlarini tashkil etuvchi maxsus birlashmalar mavjud. Bunday yondashuv aholini tadbirkorlik faoliyatiga faol jalb qilishni kengaytirish, oilaviy an'analarni, oilaviy tadbirkorlar sulolasini shakllantirish va rivojlantirish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan O'zbekistonda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun birinchi navbatda hududlarning imkoniyatlarini to'g'ri baholash, ikkinchidan, biznes qilish uchun qulay muhitni yaratish hamda uchinchidan, joylarda infratuzilma holatini yaxshilash zarur hisoblanadi.

Buning uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi:  
- hududlarda foydalanilmay turgan noturar joylarni aniqlash va ulardan unumli foydalanish bo'yicha takliflar tayyorlash;

- tadbirkorlik subyektlari nisbatan kam bo‘lgan viloyatlarda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga to‘sqinlik qilayotgan muammolarni aniqlash va tizimlashtirish zarur;
- har bir mahallada bittadan kasanachilikni rivojlantirishga salohiyati bo‘lgan tadbirkorlarni aniqlash va unga kamida 20-30 ta fuqaroni biriktirgan holda kasanachilik faoliyatini rivojlantirish;
- qishloq joylarida ekin maydonlaridan unumli foydalanish, mavsumiy ish o‘rinlarini yaratgan tadbirkorlarni rag‘batlantirish mexanizmini joriy qilishdan iborat.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. <https://lex.uz/acts/2004956>. (O‘zbekiston Respublikasining Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risidagi qonuni).
2. <https://lex.uz/docs/5785317?ONDATE2=31.01.2023&action=compare> (“Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining daromad manbaini kengaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori).
3. <https://lex.uz/acts/3772869> (“Har bir oila-tadbirkor” dasturini amalga oshirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori).
4. <https://lex.uz/docs/6374137> (“Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori).
5. Arziyev M.A. Raqamli iqtisodiyotda inson kapitalining yangi belgilfri va xususiyatlarining shaklanishi hamda rivojlanishi. Maqola. - Farg‘ona. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. 23.02.2024 y. 143-146 betlar.
6. Арзиев М.А. Большие данные как главный ресурс цифровой экономике. Статья. - Тошкент-2023 г. Международная научно-практическая конференция. Сборник научных трудов. 105-110 ст.
7. Arziyev M.A. Raqamli iqtisodiyot - yuksalishning eng qisqa yo‘li. Maqola.- Urganch-2023 y. Ilm sarchashmalari. 6.2023. 53-56 betlar.